



THE ROLE OF AGRICULTURE IN THE COUNTRY'S ECONOMY

Sirojiddinov Asliddin Abduvohidjon o'g'li¹, Mamatova Yulduz Qodir qizi²

¹ Gulistan State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4772706>

ARTICLE INFO

Received: 5th May 2021
Accepted: 10th May 2021
Online: 15th May 2021

KEY WORDS

Agriculture, EXPORT, product, potential, cost

ABSTRACT

Further deepening of economic reforms in agriculture will ensure the efficient and rational use of invaluable land and water resources through the optimization of the composition of arable land, the introduction of new advanced innovative agrotechnologies in agricultural production, as well as economic development of farms. increasing efficiency and financial stability will lead to expanding the export potential of the industry.

QISHLOQ XO'JALIGINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI

Sirojiddinov Asliddin Abduvohidjon o'g'li¹, Mamatova Yulduz Qodir qizi²

^{1,2} Guliston Davlat Universiteti

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 5-May 2021
Ma'qullandi: 10-May 2021
Chop etildi: 15-May 2021

KALIT SO'ZLAR

Qishloq xo'jaligi, EKSPORT, mahsulot, salohiyat, tannarx

ANNOTATSIYA

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish ekin maydonlari tarkibini maqbullashtirish, qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirishga yangi ilg'or innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etish hisobidan bebaho yer va suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlash, shuningdek, fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligi hamda moliyaviy barqarorligini oshirish, tarmoqning eksport imkoniyatlarini kengaytirishga olib keladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlab o'tganidek: – "O'zbekiston industrial-agrar mamlakat bo'lib, qishloq xo'jaligi sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 17 %ini ishlab chiqaradi va mehnatga yaroqli aholining 34 %ini ish bilan ta'minlaydi[1]. Bugun 16 milliondan ortiq qishloq aholisining daromadlari qishloq xo'jaligi bilan bog'liq.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98 %i sug'orma dehqonchilik hisobiga to'g'ri keladi. Bugungi kunda O'zbekistonda sug'oriladigan yerlar maydoni 4,3 mln.ga bo'lib, ularning 55 %i (2,3 mln.ga) nasoslar yordamida suv bilan ta'minlanadi. Bu esa sug'orish suvining tannarxini yanada oshiradi. Mavjud sharoitlarda fermer, dehqon xo'jaligi va tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligi va



raqobatdoshligini oshirish, respublikamiz oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va eksport salohiyatini yuksaltirish eng muhim ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda [1]. .

Mamlakatimizda qish-bahor mavsumi uchun meva-sabzavot mahsulotlarini zaxiraga g'amlash, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar ehtiyojini ta'minlash bo'yicha davlat buyurtmasi tizimi joriy qilingan. Mamlakatimizda ichki bozorda meva-sabzavot mahsulotlari narxining oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat tovarlarining asosiy turlariga narx-navoni monitoring va nazorat qilish respublika komissiyasi tuzildi. Import orqali bozorni tanqis va yuqori narxdagi mahsulotlar bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinib, hududlar kesimida 490 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini qish-bahor mavsumi uchun g'amlash parametrlari tasdiqlangan edi.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish ekin maydonlari tarkibini maqbullashtirish, qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirishga yangi ilg'or innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etish hisobidan bebaho yer va suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlash, shuningdek, fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligi hamda moliyaviy barqarorligini oshirish, tarmoqning eksport imkoniyatlarini kengaytirishga olib keladi. O'zbekistonda yetishtirilgan, noyob iste'molbop xususiyatgalarga ega sabzavot, meva, uzum va poliz mahsulotlari bilan xorijiy hamkorlarni keng ko'lamda tanishtirish, zamonaviy bozor mexanizmlari vositasida meva-sabzavot mahsulotlari yetishtiruvchilar, qayta ishlovchilar va yetkazib beruvchilar o'rtasida barqaror kooperatsion aloqalar o'rnatish va shuning asosida yangi va qayta ishlangan mevasabzavot mahsulotlarining

hajmini oshirish hamda eksportga yetkazib beriladigan turlarini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish hozirgi kunning asosiy maqsadi hisoblanadi. Namangan viloyatida ham qish va bahor oylarida bozorlar hamda aholi dasturxonlari, ijtimoiy muassasalar ta'minoti uzluksizligini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi mahsulotlari zaxirasi yaratilmoqda.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2018-yilning 30-noyabr holatiga tumanlar hokimliklari va mas'ul tashkilotlardan olingan ma'lumotlarga asosan jami 31,6 ming tonna (rejaga nisbatan 73,6 %) zaxiraga qo'yilgan. Shundan:

- 10045,1 tonna kartoshka (52,6 %);
- 10798,7 tonna piyoz (84,5 %);
- 7651,5 tonna sabzi (108,2 %);
- 3093,2 tonna guruch (87,6 %).

2018-yilda barcha xo'jaliklarda 190 ming tonna (108 %) paxta, 740 ming tonna (129,4 %) don, 281 ming tonna (106,8 %) kartoshka, 771 ming tonna (106,8 %) sabzavot, 82 ming tonna (106,7 %) poliz, 264 ming tonna (106,8 %) meva, 135 ming tonna (106,1 %) uzum, chorvachilik mahsulotlaridan 135 ming tonna (108,2 %) go'sht, 690 ming tonna (108 %) sut, 485 mln. dona (114 %) tuxum, 2905 tonna (102,3 %) pilla, 950 tonna (105,3 %) asal yetishtirirgan holda yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni 3986,5 mlrd. so'mga yetkazish ko'zda tutilgan edi. Namangan viloyati hududlarida 2017-2018-yillarda qish va bahor oylarida asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini zaxiraga jamg'arish tadbirlarida jami 47,6 ming tonna (17,9 ming tonna ombor, 29,7 ming tonna sovutkich) sig'imga ega jalb etilgan 589 ta omborxonalar va sovutkichli kameralar mavjud. "Namangan viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi"ga asosan qishloq xo'jaligi yo'nalishida 2018-yil davomida 18,9 mln.



AQSH dollarilik 277 ta loyihalarni amalga oshirish va natijada 1923 nafardan ziyod ish o'rinlarini yaratish belgilangan bo'lib, "On-line" monitoring tizimiga kiritilgan [3].

2018-yil davomida umumiy qiymati 9,3 mln. AQSH dollarilik 224 ta loyihalarni amalga oshirish va natijada 1401 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida bozor munosabatlariga o'tish ushbu sohada xo'jalik yuritishning ko'p ukladli tizimini shakllantirish zaruratini keltirib chiqardi. Shundan kelib chiqqan holda, qishloq xo'jaligida turli xil xo'jalik va mulkchilik shakllarining faoliyat yuritishi uchun barcha huquqiy, tashkiliy iqtisodiy shartsharoitlarni yaratish mamlakat hukumati oldidagi muhim vazifa bo'lib kelmoqda [1].

Qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish bo'yicha ustuvor vazifa, avvalo, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishdir. Shuning uchun 2018-yilda tuproq unumdorligi past yerlar hisobidan ushbu hududning qariyb 18 ming gektar paxta va 1000 gektar g'alla maydonlari qisqartiriladi. 2019-yilda maydonlarda sabzavot va meva yetishtiriladi, intensiv bog' va tokzorlar barpo etiladi, issiqxonalar tashkil qilinadi. Natijada mahsulotlarni chuqur qayta ishlash hajmi keskin ko'payib, qo'shimcha qiymatli eksportbop mahsulotlar tayyorlanadi. Bu aholining manfaatdorligi oshishi va daromadi yanada ko'payishiga olib keladi. Yaqin kunlarda 2017-2020-yillarga mo'ljallangan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish yakuniga yetkaziladi.

Dasturga muvofiq, ekin maydonlarini maqbullashtirish, paxta maydonlarinibosqichma-bosqich qisqartirish ta'minlanadi. Asosiy e'tibor eksportga yo'naltirilgan meva-sabzavot va oziq-ovqat

hamda chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirishga, shuningdek, kichik ishlab chiqarish shoxobchalarini tashkil etish va servis xizmatlari ko'rsatishga qaratiladi. Agrar sohada amalga oshirilgan yer va suv islohotlari yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va tuproq unumdorligini oshirish kabi masalalarga qaratilgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish xo'jaliklar toifalari kesimida tahlil etilganda, yildan yilga fermer xo'jaliklarining ulushi oshib borayotganligi, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ulushi esa kamayib borayotganligi kuzatilmoqda.

2018-yilda jami 776, 7 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 586,3 mln. AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, 60,0 % tashkil qilgan. Meva-sabzavotlar va qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari eksportini oshirish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun muhimdir. Hozirgi vaqtda o'sha mahsulotlar eksporti qiymati bo'yicha O'zbekiston eksportining 6,2 %ini tashkil qiladi, bu esa O'zbekistonning uzoq vaqtlardan beri asosiy eksport mahsuloti bo'lgan paxta eksportiga qaraganda 1,5 marta ko'proq valuta keltiradi [1]. Shu bilan bir qatorda mamlakatimiz qishloq xo'jaligida va oziq-ovqat sanoatida mamlakatimiz aholisining har beshtasidan bittasi band bo'lsa, mamlakat YaIMda mazkur tarmoqlarning ulushi qariyb 28 foizni tashkil etadi, chakana savdo aylanmasining salkam 51 %i oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga to'g'ri keladi. Qishloq hududlarida mamlakatimiz aholisining salkam 50 foizi, shahar atrofi hududlarida 21 foizi istiqomat qilayotgan bir paytda, agrosanoat majmuyi korxonalarini aholi bandligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.



Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar tufayli qishloq xo‘jaligida qator o‘zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, agrobiznesning asosiy faoliyat yo‘nalishlari sifatida chorvachilik, dehqon va fermer xo‘jaliklari barqaror rivojlana boshladi. Prezidentimiz rahbarligida qishloq xo‘jaligi boshqaruv tizimini isloh qilish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish borasidagi ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘z samarasini beradi.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirish va modernizatsiyalash bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlar agrar tarmoqni barqaror sur‘atlar bilan rivojlanishtirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, eksport salohiyatini yuksaltirish hamda xalqimiz turmush sifati va moddiy farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o‘rganish va keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib etishga bag‘ishlangan ilmiyommabop qo‘llanma. - 142 bet.
2. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida. PF-5308-son. 22.01.2018. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 25.05.2018-y., 06/18/5447/1269-son.
3. info@agro.uz. Mart oyida kuzgi g‘alla parvarishi bo‘yicha tavsiyalar. 05.03.2018. R. Siddiqov, N. Yusupov.
4. Dehqonov S., Qudratov T., Qishloq xo‘jaligi statistikasi. Darslik. – T, 2003-yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari. 2019-yil. stat/u